

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIDA NIZO PREDMETIGA NISBATAN MUSTAQIL TALABLAR BILAN ARZ QILMAYDIGAN UCHINCHI SHAXSLARNING HUQUQIY HOLATI

Jo'raev Javlonbek Norboboevich

Yuristlar malaksini oshirish markazi Xususiyy-
huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

javlon-juraev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11178080>

Annotatsiya: Ushbu maqola fuqarolik protsessual huquqida nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning huquqiy holatiga bag'ishlangan. Unda nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan shaxslarning boshqa ishtirokchilar bilan o'xshashligi va farqli jihatlari, nizolarni hal qilishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Mavjud qonunchilik normalari tahlil etilib, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan. Maqolada nazariyada mavjud yondashuvlar, olimlarning fikrlari o'rganilishi natijasida muallif muayyan xulosalarga keladi. Shuningdek, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan shaxsning huquqiy holati va fuqarolik protsessual huquqida tutgan o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: uchinchi shaxs, fuqarolik protsessi, huquqiy holat, mustaqil talablar, protsessual maqom, huquq va manfaatlarni himoya qilish, sud jarayonida ishtirok etish.

Аннотация: Данная статья посвящена правовому положению третьих лиц, не заявляющих самостоятельных требований к предмету спора в гражданском процессуальном праве. Выявляются сходства и различия между лицами, не заявляющими самостоятельных требований по предмету спора, их роль и значение в разрешении споров. Проанализированы существующие правовые нормы и выдвинуты предложения по их совершенствованию. В статье автор приходит к определенным выводам в результате изучения существующих теоретических подходов и мнений ученых. Также раскрывается правовой статус истца, не заявляющего самостоятельных требований к предмету спора, и его роль в гражданском процессуальном праве.

Ключевые слова: третьи лица, гражданский процесс, правовой статус, самостоятельные требования, процессуальный статус, защита прав и интересов, участие в судебном процессе.



Dunyoda iqtisodiy munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarni hal qilishda iqtisodiy sud ish yurituvchi ishtirokchilari uchun teng va adolatli sharoitni yaratish, yuzaga kelgan nizolarni qonuniy va adolatli hal etishda tegishli huquqiy normalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon bankining «Biznes yuritish – 2020» hisobotida dunyo miqyosida sud ishlarini yuritish sifati ko'rsatkichi 0-18 ball oralig'ida baholangan bir vaqtda 110 ga yaqin davlatlarda sud ishlarini yuritish sifati ko'rsatkichi 8 balldan past ekanligi ko'rsatilgan¹.

Respublikamizda sudni hokimiyatning mustaqil va alohida tarmog'i sifatida tashkil etish, uni o'tmishdagi jazolash organidan inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi hamda ishonchli himoya qiluvchi davlatning chinakam mustaqil institutiga aylantirish, sudlar faoliyati samaradorligi va nufuzini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda taraflarning huquqiy maqomini belgilash, sud jarayonida taraflarga bir xil imkoniyat yaratilishiga erishish, taraflarning protsessual-huquqiy manfaatdorligini moddiy-huquqiy manfaatdorlikdan ajratish maqsadida keng ko'lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. «Sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish hamda fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash»² sud-huquq tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu sohani tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida "Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi" belgilangan³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6034-sonli Farmoni⁴ bilan ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rishga ixtisoslashtirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va

¹ www.doingbusiness.org/en/reports/global-reports/doing-business-2020

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6034-sonli Farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 06/20/6034/1108-son.

Toshkent shahrida tumanlararo ma'muriy sudlarni tashkil etish, shu munosabat bilan tuman (shahar) ma'muriy sudlarini tugatish va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari saqlab qolinishi nazarda tutilgan edi. Ma'muriy sudlar ish hajmining ko'pligi ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rib chiqish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi⁵.

Taraqqiyot strategiyasida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022 yilda qarori, harakati (harakatsizligi) noqonuniy emasligini sudda isbotlash majburiyatini, uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o'ziga yuklash tartibiga amal qilinishi zarur⁶. Sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini joriy etilishi arizalarni sudga taalluqliligidan qat'iy nazar qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar instituti fuqarolik, mehnat, uy-joy, nikoh, meros, tadbirkorlik va boshqalar kabi jamiyat hayotining turli sohalaridagi nizolarni hal etishda asosiy rol o'ynaydi. Uchinchi shaxslarni jalb qilish mavjud vaziyatni ajratib ko'rsatishga, agar taraflar yoki ulardan biri muayyan holatlarni yashirishga harakat qilsa, ishning tafsilotlarini aniqlashga, shuningdek, sud ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga imkon beradi. Ushbu institutga qiziqish har doim mavjud bo'lib, ayniqsa nizo predmeti bo'yicha mustaqil talablar qo'ymaydigan uchinchi shaxslar toifasi haqidagi masala alohida qiziqish uyg'otadi.

Garchi qonun hujjatlarida "nizo predmeti bo'yicha mustaqil da'volar bildiruvchi uchinchi shaxs" tushunchasi mavjud bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotlar tahlili ham bu masala bo'yicha konsensusni ta'minlamaydi. Darsliklarda "uchinchi shaxs" tushunchasi berilgan, ammo bunday shaxslarning o'ziga xos turlari va ularning mazmuni to'laqonli emas, faqat ularning ba'zi huquq va majburiyatlari qayd etilgan xolos.

D.Xabibullaevning fikricha, uchinchi shaxslar sifatida tan olish uchun ularni manfaatlari mazmuni va huquqiy oqibatlarga e'tibor qaratish zarur⁷. M.Mamasiddiqov esa, sherik ishtirokchilikdan farqli ravishda uchinchi shaxslarning taraflardan farqi ular o'rtasidagi manfaatdorlik borasida qarama-

⁵ https://uza.uz/ru/posts/mamuriy-sud-ishlarini-yuritish-tizimi-takomillashtirildi_235448?q=%2Fposts%2Fmamuriy-sud-ishlarini-yuritish-tizimi-takomillashtirildi_235448

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

⁷ Xabibullaev D. Fuqarolik protsessual xukuk. Savollar va javoblar. TDYU, 2010, 280-b. 31-b.

qarshilikning yo'qligi hisoblanadi va ularning talab va e'tirozlari bir xilda bo'ladi⁸.

FPK 49-moddasiga ko'ra, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish bo'yicha qabul qilinadigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo'lgan huquqlariga yoki majburiyatlariga ta'sir etadigan bo'lsa, sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogar yoki javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoxud sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar taraflarning protsessual huquqlaridan foydalanadi va ularning protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan arz qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, ulardan voz kechish huquqi mustasno.

Agar nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'z harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida da'vogarning huquqlari buzilganligi to'g'risida arz qilingan talablarni tan olgan taqdirda, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklatish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilishga haqli. Xuddi shunday hollarda, da'vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yiladi.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlangandan so'ng kirishgan bo'lsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Uchinchi shaxslarning sudda mustaqil da'volarsiz ishtirok etishi uchun asos ko'pincha regress majburiyatining mavjudligi hisoblanadi. D.A.Guziy ta'kidlaganidek, ushbu murojaat huquqining amalga oshirilishi bilan bu shaxslar ishtirokining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, uchinchi shaxslarni jalb qilish zarurati bir jarayonda bir vaqtning o'zida ikkita ish ko'rib chiqilishi mumkinligi bilan bog'liq: da'vogar va javobgar o'rtasida, shuningdek, uchinchi shaxs va nizolashayotgan tomonlardan biri o'rtasidagi masala hal qilinadi. Muallif asosiy va qarshi talablarini birgalikda ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi⁹.

⁸ Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Mamasiddiqov M. 2012. 516-b.107-b.

⁹ Гузий Д. А. Участие в гражданском судопроизводстве третьих лиц, не заявляющих самостоятельных требований относительно предмета спора, в свете достижения процессуальной экономии // Актуальные проблемы российского права. 2021. №5 (126)

Mustaqil da'vo qilmaydigan uchinchi shaxslarni jalb qilishning asosiy mezoni qonuniy manfaatdorlikning mavjudligi hisoblanadi. Bunday shaxslar haqida gapirganda, ularning manfaatdorligi xususiyatini hisobga olish kerak, lekin qonun hujjatlarida bu manfaatning mazmuni belgilab bermagan. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda ushbu masalani o'rganishga bir nechta yondashuvlar mavjud.

Ayrim olimlar manfaatdorlik deganda moddiy-huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi taraflarning sud jarayonida moddiy huquqiy manfaatga doir talablarini tushunishni taklif qiladi¹⁰. Biroq, har doim ham moddiy huquqiy talab mavjud bo'ladi deyish qiyin albatta.

Aksariyat olimlar sudda mustaqil talablarni ilgari surmaydigan uchinchi shaxslarning ahamiyati haqidagi nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlaydi. Ular bunday shaxslarning ishtiroki muhim deb hisoblashadi. Biroq, zamonaviy fanda qarama-qarshi fikr ham mavjud. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, ushbu toifadagi uchinchi shaxslarning ishtiroki huquqiy himoya olishni qiyinlashtirishi mumkin va shuning uchun ularning ishtirokiga ehtiyoj yo'q¹¹.

Biroq, uchinchi shaxslarni taklif qilish ba'zan jarayonning kechikishiga olib kelishi mumkin va ba'zi hollarda uchinchi shaxs sifatida jalb qilinishi kerak bo'lgan shaxslar ro'yxatini o'z talablarini taqdim etmasdan aniq belgilash muammoli bo'ladi. Albatta, mustaqil da'volar keltirmaydigan uchinchi shaxslarning ishtiroki qaysidir ma'noda ishda ishtirok etuvchi tomonlarning tarkibini murakkablashtiradi, bu esa ularning jarayonda to'liq ishtirok etishini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Ehtimol, uchinchi shaxslar o'z talablarisiz jalb qilingan vaziyat protsessual resurslarni tejash tamoyilini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

Shu bilan birga, uchinchi shaxslarning ushbu toifasi ko'plab muhim protsessual funktsiyalarni bajaradi. Protsessda uchinchi shaxslarning ishtiroki ishning barcha muhim tomonlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa nizolarni yanada samarali hal etish va ko'rib chiqishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular ishni ko'rib chiqish jarayonida jarayonning boshqa ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniqlashga va ularning manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi, bu esa pirovardida qonuniy va asosli qaror qabul qilish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, uchinchi shaxslarning ishtiroki bir xil bahsli masala bo'yicha qarama-qarshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini ham yo'q qiladi.

¹⁰ Моисеев С. О праве истца привлечь третьих лиц// Арбитр. и гражд. процесс. 2007. № 8. С. 19.

¹¹ Виноградова С.Э. Практическая значимость участия третьих лиц, не заявляющих самостоятельные требования относительно предмета спора. // Вестник науки. 2022. №5. (50).

Uchinchi shaxslarning fuqarolik protsessida ishtirok etishi barcha taraflarning, shu jumladan uchinchi shaxslarning o'zlari va sud protsessida ishtirok etuvchilarning huquq va manfaatlarini yetarli darajada sud himoyasini ta'minlash uchun zarur. Shuningdek, u ishning holatlarini har tomonlama baholashga yordam beradi. Uchinchi shaxslarni jalb qilishda protsessual iqtisod tamoyiliga rioya qilish masalasi munozarali bo'lib qolmoqda: bir tomondan, ularning ishtiroki nizolarni tezroq hal qilishga yordam beradi, boshqa tomondan esa, bu jarayonni kechiktirishi ham mumkin. Bu holda protsessual iqtisod tamoyilini amalga oshirish uchun asosiy va qarshi da'volarni birgalikda hal qilish foydali bo'lishi mumkin.

